XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 23-fevral VII-17-25-3-45-K/26 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik sub’yektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risidagi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-387-sonli qarorining 8-bandi (a)-qismida 2026-yil 1-yanvardan boshlab Obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi, shuningdek tuman markaziy ko‘chalaridagi qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlar sifatidan to‘liq qoniqishini va tadbirkorlar uchun jozibadorligini ta’minlash, hosil bo‘layotgan chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, chiqindilar to‘planishining oldini olish, ekologik hamda sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida va tuman hokimligining 2026-yil 23-yanvardagi №68/x sonli Xalq deputatlari G‘allaorol tuman Kengashi raisiga yo’llagan xati yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. G‘allaorol tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik sub’yektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i X.I.Mamaraximovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (Sh.Janzoqov), tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi (X.Saidov), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi(F.Sayfiddinov), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (Z.Usmonov)lar fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalari va me’yorlariga asosan hududlar bo‘yicha o‘rnatilgan me’yorlardan iste’molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste’molchi tomonidan QSMCH (qattiq suyuq maishiy chiqindilar) yillik to‘lash hajmi va QQS (qo’shimcha qiymat solig’i) xizmat haqqi so‘mmasi 1-ilovaga muvofiq belgilansin.

4. Tuman hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (S.Ismailov) ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (I.Mamatqulov)ga, ijrosi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdujalilov) va tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (B.Quvondiqov) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (X.I.Mamaraximov)larning zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **UMAROV SHAKARBEK XABIBOVICH**

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2026-yil 23-fevraldagi
VII-17-25-3-45-K/26 -son qaroriga
1-ilova

G‘allaorol tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik sub’yektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

TARIFLARI
so‘mda

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki madel raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)	QQS
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish (QQS bilan)	**QSMCH**	**1 m3 (kub)**	**60 000 so‘m**	**67000 so‘m**